

## HAYOT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI. HAYOT DAVOMIYLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

**Dilso'z Yaxyoyevna Hamroyeva**

O'zbekiston Milliy Universiteti iqtisodiyot fakulteti "Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish" kafedrasida tayanch doktoranti, Turon Zarmed Universiteti assistenti  
([mohlaroyim261218@gmail.com](mailto:mohlaroyim261218@gmail.com))

### ANNOTATSIYA

Ushbu ishda sug'urta faoliyatini rejalashtirish asosida ro'y berishini oldindan aytib berish mumkin bo'lmagan baxtsiz hodisalardan muhofazalanish, bu hodisalarning zararlarini kamaytirish sug'urta bozoridagi hayot sug'urtasining o'rni, unga ta'sir qiluvchi omillar va o'z navbatida bu omillarning hayot davomiyligiga bog'liqligi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Hayot sug'urtasi; risk sug'urtasi; uzoq va qisqa muddatli hayot sug'urtasi; renta YaIM; YaMM; aktuar matematika.

### ABSTRACT

In this study, protection against unpredictable accidents that occur on the basis of insurance activity planning, reduction of losses from these events, the role of life insurance in the insurance market has been studied.

**Keywords:** life insurance, risk insurance, long term and short term life insurance, rent, GDP, GNP, actuarial mathematics.

### KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, sug'urta tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga, aholi hayotining sifat darajasini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada sug'urta bozorining rolini kuchaytirish va sug'urta vositalarini keng qo'llashni taqozo etmoqda. Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urta xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan

ishonchini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shu sababdan bugungi kunda mamlakatimizdagi hayot sug‘urtasi bozorini rivojlantirish muhim hisoblanadi. [1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hayot sug‘urtasi texnik jihatdan sug‘urtaning eng rivojlangan yo‘nalishi hisoblanadi. Aynan hayot sug‘urtasida matematik statistika va ehtimollar nazariyasining o‘rni juda muhim hamda sug‘urtaning aynan shu yo‘nalishida ishonchli muntazamlilik asosida statistik-ehtimollik modellarini keng qo‘llash va deyarli aniq bo‘lgan natijalarni olish imkoni paydo bo‘ladi.

Aktuar matematika an‘anaviy tushunchada – bu turli xil sug‘urta shartnomalarida sug‘urta tariflarining nazariy hisob kitobi hisoblanadi, shuningdek, sug‘urta kompaniyasining ishonchlilik kafolatli bilan kasod bo‘lishidan saqlaydigan sug‘urta zaxirasini hisoblash, umumiy sug‘urtalanayotgan shaxslarni xarakterlaydigan demografik qonunlarni aniqlash, kompaniya foydasini, inflyatsiya darajasini, qonuniy va boshqa aspektlarini hisoblashdir.

**Shaxsiy sug‘urta** – sug‘urtaning bir yo‘nalishi bo‘lib, bu mulkiy manfaatlar himoyasidir, ya‘ni:

- 1) Fuqaroning aniq bir yoshgacha yoki muddatgacha yashashi, vafot etishi, hayotida boshqa bir holatlarining paydo bo‘lishi (hayot sug‘urtasi);
- 2) Hayotiga zarar yetishi, fuqaroning sog‘lig‘iga, unga tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi (baxtsiz hodisa va kasalliklardan sug‘urtalash, tibbiy sug‘urta).

Shaxsiy sug‘urta obyektlari - insonning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qila olish qobiliyati va fuqaroning pensiya ta‘minoti hisoblanadi. Shaxsiy sug‘urta quyidagilarga bo‘linadi:

- Hayotni sug‘urtalashga;
- Baxtsiz hodisa va kasalliklardan sug‘urtalash;
- Tibbiy sug‘urta.

**Hayot sug‘urtasi** – Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta mukofotlari evaziga sug‘urtalanuvchiga yoki sug‘urtalanuvchining hayotida aniq bir voqealar yuz bersa, uchinchi shaxslarga to‘lab beriladigan kafolatlangan pul summasi (sug‘urta summasi); kasallik, nogironlik, o‘lim yoki aniq yoshgacha yashashi yoki boshqa hodisalar.

**Benefitsiariy** (beneficiary) – pul summasini olishga haqi bo'lgan shaxs, ya'ni bu sug'urtalanuvchi emas, lekin sug'urtalangan shaxsning o'limi tufayli sug'urta polisi egasining o'rniga sug'urta to'lovini olishga qonuniy haqli shaxs.

Hayot sug'urtasining bir qancha o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1) Aniq bir qiymatga ega bo'lmagan *inson hayoti, sug'urta himoyasining obyekti bo'ladi*. Hayot yoki o'limni obyektiv baholab bo'lmaydi, lekin sug'urtalanuvchi shaxs sug'urta shartnomasini tuzayotganda, o'zining mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganda yoki uning o'limi tufayli oila a'zolarining moddiy qiyinchiliklarini oldini olishga harakat qiladi. Jabrlaruvchilar sug'urtalanishmagan bo'lsa, qisqa muddat ichida zararni qoplash uchun sezilarli summani topishga majbur bo'lishadi, bu esa ular uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Sug'urta shartnomasi esa bu muammoni yechishi mumkin, chunki muntazam to'lanayotgan kichik to'lovlar evaziga sug'urta ishtirokchilari qandaydir hodisalar yuz bersa, muammoni yechish uchun katta xarajatlar qilmasliklarining kafolatini olishadi. Shu bilan birga sug'urta, tasodifiy baxtsiz hodisa natijasida paydo bo'ladigan xarajatlarni oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

2) *Hayot sug'urtasi ijtimoiy funksiyani bajaradi*, ya'ni undan *jamiyatning ijtimoiy muammolarini* yechishga keng foydalanishadi. Eng avvalo, sug'urta tashkilotlari mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan va baxtsiz hodisa yoki kasalliklar tufayli nogiron bo'lib qolgan sug'urtalangan shaxslarga katta yordam berishadi. Sug'urta kompaniyalari jabrlanuvchilarning davolanish va rehabilitatsiya xarajatlarini moliyalashtirishadi, shu tariqa yo'qotilgan daromadni kompensatsiya qilishadi. Sug'urtalanuvchi vafot etsa, uning yaqinlariga hayot darajasi pasaymaslik uchun yetarli bo'lgan pul mablag'i to'lanadi. Shu tariqa sug'urta fuqarolar uchun hayot darajasining stabilizatori vazifasini bajaradi.

3) *Demografik hodisalar bilan o'zaro kuchli munosabat*. Hayot sug'urtasi sug'urtalanuvchining hayotida bo'layotgan biror bir hodisalar tufayli, to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari bilan o'zaro bog'liq. Bunday hodisalarga: kasallik, nogironlik, o'lim yoki teskarisi, aniq bir yoshgacha yashash kiradi. Bunday hodisalar demografik nom bilan nomlanadi, chunki ular bevosita aholi soniga, shu bilan birga alohida guruh vakillariga ham ta'sir ko'rsatadi.


4) *O'zining g'ayrioddiy mazmunini o'zgartiradi*, hayot sug'urtasi boshqa sug'urta turlaridan farqlovchi toifadir. Agar o'lim g'ayrioddiy hodisa bo'lsa, sug'urtalanuvchining kelishilgan yoshgacha yoki kelishilgan hodisagacha yashab qolishi g'ayrioddiy hodisaga kirmaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aholining katta guruhlarida

demografik hodisaning yuz berish chastotasi statistik barqarordir, ya'ni vaqt o'tishi bilan kam o'zgaradi va shu tufayli deyarli ishonchli tarzda bashorat qilinib, amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Hayot sug'urtasida aktuar hisoblar metodi aholi guruhi dinamikasini va holatini o'rganadigan demografik statistikaga tayanadi. Demografik statistika sug'urta shartnomasidagi ehtimoliy sug'urta modellarini va pensiyaviy sxemalarni baholashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida sug'urta mukofoti miqdorini, pensiya to'lovlarini, sug'urta zaxiralari kabi asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi. Statistik demografiyani o'rganish – hayot va pensiya sug'urtalarida aktuar hisoblarni ishlatish uchun zarur shartlardandir.

5) *Hayot sug'urtasi shartnomalari uzoq muddatli hisoblanadi.* U o'zida nafaqat risk, balki jamg'ariladigan funksiyani ham jamlagan. Hayot sug'urtasi investitsion funksiyani bajaradi. Hayot sug'urtasi shartnomasi uzoq muddatli bo'lganligi tufayli, u orqali yig'ilgan pul summalari uzoq muddatli loyihalarga investitsiya qilish imkonini beradi. Hayot sug'urtasi aholining jamg'arma ehtiyojlarini amalga oshirish imkonini beradi. Fuqarolar aksariyat katta xarajatlarni (uy-joy, avtomobil sotib olish yoki ta'lim xarajatlari) o'zlarining hozirgi daromadlari evaziga qoplay olishmaydi, shuning uchun ham jamg'armadagi pul mablag'laridan foydalanishga majbur bo'lishadi. Hayot sug'urtasi esa bunday jamg'armani yaratish usuli bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta yordamida jamg'arilgan pul massasini milliy iqtisodiyotni mobilizatsiya qilishda ishlatilishi bo'ladi. Hammaga ma'lumki, katta jamg'armalarga ega mamlakatlar, tez iqtisodiy rivojlanish tendensiyasiga ega. Tijorat banklari qisqa muddatli pul aylanmalarini jalb etishga harakat qilishadi, sug'urta kompaniyalari esa tijorat banklaridan farqli ravishda uzoq muddatli pul aylanmalarini jalb qilishadi. Shuning uchun ham iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari eng katta investorlar hisoblanishadi. Muntazam pul tushumlarga asoslangan uzoq muddatli kafolatlangan sug'urta kompaniyalari, mamlakatlar biznesi va hukumati uchun uzoq muddatli pullar manbaiga aylandi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Hayot sug'urtasining asosiy ijtimoiy va moliyaviy xarakterga ega bo'lgan maqsadi 1-rasmda ko'rsatilgan. Hayot sug'urtasi sug'urtaning asosiy maqsadini amalga oshiradi – fuqarolarning mulkiy himoyasini ta'minlaydi. Asosiy maqsadi esa amalga oshirilayotgan ishlarning maqsadini aniq yo'nalishlarini aniqlash. (1-rasm).




1-rasm Hayot sug'urtasining asosiy maqsadlari

Hayot sug'urtasiga xos xususiyat bu shartnomada ko'rsatilgan yoshgacha sug'urtalanuvchi yashab qolsa, unga sug'urta mukofoti to'lanadi yoki shartnoma amal qilayotgan payt (uzoq muddatli shartnoma) sug'urtalanuvchi vafot etsa, uning yaqinlariga sug'urta mukofoti (kompensatsiya) to'lanadi. Bu kabi hodisalar sodir bo'lishi demografik statistikaga asoslanadi va shu sababli bunday hodisalarning yuz berishini rejalashtirish mumkin. Bundan hodisalar sirasiga tug'ilish, o'lim, shikastlanish, nogironlik, belgilangan yoshgacha yashab qolish va boshqalar kiradi. Sug'urta tariflari hisob kitobini o'limlilik jadvali va daromadlar normasi ma'lumotlariga tayanib tuzish mumkin. Lekin bu hodisalarning yuz berishi tasodifiy, ya'ni xavfli (risk), taxminiy hisoblanadi.[2]

Hayot sug'urtasi rivojlangan mamlakatlarda juda keng qo'llaniladi, sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta mukofotlari va to'lovlarining qariyb yarimidan ko'pi sug'urtaning aynan shu turiga to'g'ri keladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sug'urtaning bu turi o'rtacha odam boshiga yiliga 1000\$ dan to 4000\$ gacha to'g'ri keladi, YaIMda ulushi esa 4% dan (AQSHda) to 10% gacha (Yaponiyada). O'zbekistonda esa hayot sug'urtasi rivojlanishining boshlang'ich bosqichda turibdi. Bu sug'urta turiga qiziqish endi paydo bo'la boshladi.

Fransiya sug'urta jamiyati assotsiatsiyasi va Shvetsariyaning «Sigma» agentligining ma'lumotlariga ko'ra, hayot sug'urtasi va no-hayot sug'urtasi bo'yicha yig'iladigan sug'urta mukofotlari mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha quyidagicha keltirilgan [4].

Hayot sug'urtasining eng katta ulushi G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlariga va ayniqsa Yaponiyaga to'g'ri keladi – u yerda hayot sug'urtasi boshqa turdagi sug'urtalardan 3 barobar ko'proq ulushga ega.



2-rasm. Hayot sug'urtasi shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarining summasi, mintaqalar va dunyo mamlakatlari bo'yicha 2004 y., mlrd.

Hayot sug'urtasida, sug'urta parametrlarini hisoblash, o'z navbatida insonlarning necha yoshgacha yashashi, ya'ni hayot davomiyligiga bog'liq. Hayot davomiyligiga esa juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin :

• *Iqtisodiy omil:*

YaMM;

YaMM ning jon boshiga nisbati;

Tibbiyot xarajatlari;

Inflyasiya xolati;

Ishsizlik darajasi;

va boshqalar.

• *Siyosiy omil:*

Siyosiy barqarorlik (Urushlar bo'layotgan hududlarda insonlarning hayotiga tahdidlar ham ko'p bo'ladi, masalan Suriya,



Falastin-Isroil munosabatlarining keskinlashuvi, hamda Afg'onistondagi vaziyat va hokazolar;

va boshqalar.

• *Ekologik omil:*

Ob-havo;

Dengizga chiqish;

Tog'li hududlarning mavjudligi;

va boshqalar.

• *Ijtimoiy omil:*

Vrachlarning jon boshiga nisbati;

Ekologik toza suv bilan ta'minlanganlik darajasi;

Sanitariya xizmatlari;

Pandemiyaning tarqalishi (Ebola, SPID, Covid-19 viruslarining tarqalishi...);

Yashash sharoiti;

Aqliy mexnat resurslarining ishchi kuchiga nisbati;

Boy va kambag'allar orasidagi farq;

Savodlilik darajasi;

va boshqalar.

Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin, ammo biz bularning ichida eng muhimlarini qaraymiz:

## XULOSA

Shuni ta'kidlash joizki, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM (sotib olish qobiliyatini hisobga olganda), hamda savodxonlik darajasining hayot davomiyligiga ta'siri yetarlicha katta. Va ular orqali biz bashorat qilishimiz mumkin. Agar YaMM ni oshirsak va jon boshiga to'g'ri keladigan YaMMni orttira olsak, hayot davomiyligini uzaytirishga erishishimiz mumkin. YaMM ko'p bo'lishi mumkin ammo jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM past darajada bo'lsa, hayot davomiyligi ham past bo'ladi. Jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM ni oshirish uchun YaMM ni aholi o'sishiga nisbatan ko'proq o'stirishga erishish kerak. Masalan, 2021 yil O'zbekistonda YaMM o'sishi 4,8 % ni tashkil qildi aslida esa aholi 2 % ga o'sgani uchun haqiqiy o'sish 2,8 % ni tashkil qilgan. Shuning uchun ham biz o'z fuqarolarimizni ko'proq yashashini erishish uchun aholi sonini o'stirishga emas, balki ishlab chiqarishni ko'paytirishga harakat qilishimiz kerak.

Savodxonlik darajasi bilan esa teskari bog'liqlik mavjud. Demak, mamlakatda aholisi tarkibida qancha savodsiz odamlar ko'p bo'lsa, o'lim ham shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun biz,

O'zbekistonda ta'limni sifatini yaxshilash kerak boladi. Bu teskari korrelyasiyani har xil talqin qilish mumkin. Masalan: o'z – o'ziga suiqasd qilish ham savodsizlik va irodasizlikdan kelib chiqadi. Yoki savodsizligi tufayli hayoti davomida moliyaviy qiynaladi va barvaqt kasal bo'lib olamdan o'tadi. Bundan esa quyidagicha xulosa qilish mumkin: O'zbekiston aholisining umrini uzaytirish uchun savodxonlikni oshirish va ishlab chiqarish va servis xizmatini kuchaytirish kerak (YaMM ni oshirish kerak).

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning mamlakatlar aholisining o'rtacha yoshiga bog'liqlik jadvali.

Davlat	Hay ot dav omi yligi (yil)	Savod sizlik daraj asi (%)	Jini koeffitsi yenti%	Ta'lim xarajatl ari (YaMM ning % i)	Sanitari ya bilan ta'minl anganli k (%)	Sog'liqni saqlash xarajatl ari (YaMM % i)	YaMM ning jon boshiga nisbati (sotib olish qobiliyatini hisobga olgan holda)	Ekologik toza suv bilan ta'minlan ganlik darajasi (%)	Inflya tsiya daraj asi (%)	Ishsizli k darajasi (%)
	Y	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>	X <sub>6</sub>	X <sub>7</sub>	X <sub>8</sub>	X <sub>9</sub>
Argentina	74	3	53	3,5	75	4	11324	65	17	18
Australia	79	4	35,2	5,4	86	5,5	22448	99	11	13
Belarus	68	1	21,7	5,9	96	4,9	6518	84	12	14
Brasil	67	16	60	5,1	67	3,4	6317	72	19	12
Bulgaria	71	2	28,3	3,2	99	3,2	4914	82	11	9
Camerun	55	22	50	3	40	1	1444	41	14	11
China	70	17	40,3	2,3	21	2	3291	90	10	9
Hong Kong	79	8	30	2,9	100	2,1	20999	88	10	8
Ecuador	71	9	43,7	3,5	64	2,5	2605	70	22	18
Greece	78	4	32,7	3,1	96	5,3	14595	87	9	6
Honduras	70	27	53,7	3,6	65	2,7	2254	65	13	22
Hungary	63	45	30,8	4,6	94	4,1	10479	81	15	11
India	64	57	37,8	3,2	16	0,6	2149	81	17	19
Israil	78	4	35,5	7,6	100	7	14300	100	10	5
Italy	79	2	27,3	4,9	100	5,3	20751	80	8	7
Malaysia	75	18	48,5	4,9	94	1,3	7963	89	14	9
Mexico	72	9	53,7	4,9	66	2,8	7719	83	23	17
Nepal	58	61	36,7	3,2	6	1,3	1219	44	27	19
Niger	46	85	50,5	2,3	15	1,3	727	53	35	16
Romania	70	2	28,2	3,6	44	2,9	5656	62	9	7
Spain	79	3	32,5	5	100	5,6	16730	96	7	4
Tajikistan	68	1	30	2,2	67	6,6	981	69	28	25
Russia	67	1	48,7	3,5	85	4,5	6339	93	12	15
Uzbekistan	70	12	33,3	7,7	18	3,3	2092	57	25	20
Uruguay	74	3	42,3	3,3	61	1,9	8280	89	30	29



## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4412-сонли “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2019 йил 2 август.
2. Dickson D.C.M., Hardy M.R., Waters H.R. Actuarial Mathematics for Life Contingent Risks. Cambridge University Press, 2013. — 512 p.
3. Ширяев А.Н. Основы стохастической финансовой математики. М. : МЦНМО, 2016. 461 с.
4. Ю.Н. Миронкина, Н.В.Звездина, М.А.Скорик, Л.В. Иванова.Актуарные расчёты. Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / - М.:Издательство Юрайт , 2015.
5. Насретдинова Ш.С. (2017). Худудлар суғурта бозори.
6. Vladimir I. Rotar Actuarial models. The Mathematics of Insurance. 2015 by Taylor & Francis Group, 629 p.
7. Albrecher H., Beirlant J., Teugels J.L. Reinsurance: Actuarial and Statistical Aspects. Wiley, 2017. — 368 p.
8. Laurent J., Norberg A., Planchet F. (Eds.) Modelling in Life Insurance - A Management Perspective Springer, 2016. — 255 p.